INSON RUHIYATI TASVIRI VA BADIIY ADABIYOT

Sohiba Saidmuradova -TerDPI dotsenti, PhD
To'raxonov Oybek, Ochilova Komila – TerDPI talabalari

Annotatsiya: Maqolada o'zbek nasrining taniqli vakili Nazar Eshonqulning jahon adabiyoti ilg'or namoyondalari va modern adabiyoti yutuqlarini, milliy mumtoz adabiyot va xalq og'zaki ijodi namunalarini yaxshi bilishi hamda bularning barchasi uning betakror nasriy asarlarida o'z ijobati, uslubiy jozibadorliklari bilan namoyon bo'lishi,qissa va hikoyalarida badiiy psixologik tasvir tamoyillari borasida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: estetik ta`sir, psixologik talqin, o'zbek nasri, modern adabiyoti, uslubiy jozibadorlik, psixologik tasvir.

Аннотация: В статье рассматривается известное знакомство талантливого представителя узбекской прозы Назара Эшонкула с передовыми представителями мировой литературы, достижениями современной литературы, образцами национальной классической литературы и народного устного творчества, и как всё это проявляется в его уникальных прозаических произведениях, отличающихся выразительностью и стилистической привлекательностью, а также принципы художественного психологического изображения в его рассказах и повестях.

Ключевые слова: эстетическое воздействие, психологическое изображение, психологическая интерпретация, узбекская проза, современная литература, стилистическая привлекательность, психологическое изображение, психологическая интерпретация.

Annotatsion: Writer Nazar Eshanqul is a talented artist with a unique voice, creative philosophy and aesthetic views in modern Uzbek literature.From the point

of view of the method of linguistic analysis of the language of Nazar Eshankul's stories, the characters of these small genres use unique words and phrases in their speech. This article emphasizes the possibility of observing the specific speech structure, the psychological processes of the ideological, emotional aspects of the work with the help of linguisticmeans.

Keywords: esthetic views, psychological analysis, linguistic analysis, mental experiences, cognition, linguistic means, the word "dominant", human consciousness.

Istiqlol davri o‘zbek nasri Xurshid Do‘stmuhammad, Ulug‘bek Hamdam, Isajon Sulton, Shoyim Bo‘taev, Axmad A’zam, G‘affor Hotam, Olim Otaxon, Emin Usmon kabi bir qator izlanuvchan iste’dod vakillari bilan boyidi. Nazar Eshonqul ana shu jahon adabiyoti ilg‘or tendensiya va uslublari bilan yaxshi tanish ijodkorlar safidagi yozuvchilardan biri.

Nazar Eshonqul 1962- yili Qashqadaryo viloyati Qamashi tumanining Ters ota qishlog‘ida tug‘ilgan. O‘rta maktab ta’limidan so‘ng 1981 – 1986 yillarda Toshkent davlat universiteti Jurnalistika fakultetida tahsil olgan. Aspiranturada o‘qib, Yozuvchilar uyushmasida, adabiy gazetalarda, universitetda, “Jahon adabiyoti” jurnalida faoliyat ko‘rsatadi. 1997-yildan buyon O‘zbekiston teleradiokompaniyasida ishlaydi. Uning “Go‘ro‘g‘li yohud tiriklik suvi” romani, “Urush odamlari”, “Temir panjalar”, “Momoqo‘shiq” kabi qissalari , “Maymun yetaklagan odam”, “Ajr”, “Og‘riq lazzati”, “Tobut”, “Hayol tuzog‘i”, “Bevaqt chalingan bong”, “Shamolni tutib bo‘lmaydi” singari o‘nlab hikoyalari o‘zining keng o‘quvchilar ommasiga ega. Nazar Eshonqul badiiy asarlari bilan birga, adabiy, estetik, publitsistik maqolalari bilan ham jahon adabiyoti va san’atining ilg‘or vakillari bilan shinavandalarni tanishtirib kelayotgan teran fikrli olim ham

hisoblanadi. Bunda uning "Ijod falsafasi" nomli ikki tomdan iborat kitobi xarakterli misol bo'la oladi. Bu majmualarda badiiy ijodning psixologik talqin bilan bog'liq chuqur mulohazali fikrlari ham o'z ifodasini topgandir.Nazar Eshonqul jahon adabiyoti ilg'or namoyondalarini, modern adabiyoti yutuqlarini, milliy mumtoz adabiyot va xalq og'zaki ijodi namunalarini yaxshi biladi. Bularning barisi uning notakror nasriy asarlarida o'z ijobati, uslubiy jozibadorliklari bilan namoyon bo'ladi. Nazar Eshonqul koreyalik adabiyotshunos olima professor In Gyong Ox bilan suhbatida u tilga olgan ijodkorlar e'tiborni tortadi:

"- Bugun siz qaysi o'zbek adiblarining asarlarini dunyo tillariga tarjima qilish kerak deb hisoblaysiz?!

- Yuqorida aytganim Abdulla Qodiriyning "O'tgan kunlar" romanini. Bu romanda XX asr g'arb adabiyotiga xos modern xususiyatlari yo'q. Bu sof Sharq romani. Unda o'zbek harakteri, o'zbek oila madaniyati. O'zbek ruhi yaqqol ko'rsatilgan. O'zbekning qalbini, madaniyatini, maqsadini, istagini bilmoqchi bo'lganlarga bu asar yetarli ma'lumot beradi.Keyin Cho'lponning "Kecha va kunduz", Abdulla Qaxxorning "Sarob", Mirkarim Osimning asarlarini.Zamonaviy nasrni nazarda tutyapman. Bugungi yozuvchilardan...

- Bugungi yozuvchilardan Sh.Xolmirzayev hikoyalari, M.M.Do'stning "Lolazor", A.A'zamning "Ro'yo", N.Norqobilov, Isajon Sultonning so'nggi qissalarini... Boshqa yozuvchilarda ham tarjima qilsa bo'ladigan asarlar bor. Gap bu asarlarni tushunib, uning ohiri bilan tarjima qilishda. Masalan, men shubhasiz XX asr o'zbek hikoyasining eng yaxshi namunalaridan biri deb biladigan M.M Do'stning "Dashtu dalalarda" hikoyasini tarjima qilib bo'lmasa kerak, deb

o'ylayman. Uning butun ohori o'zbek tilida namoyon bo'lgan. Boshqa tillarda bu ohori yo'qolsa, hikoyaning hech qanday qiymati qolmaydi"

Bu o'rinda Nazar Eshonqulning taniqli o'zbek hikoyanavisi Shukur Xolmirzaev nomini ehtirom bilan ta'kidlagani bejiz emas. Bu ikki yozuvchining badiiy mahorati tizimida psixologik tasvirda, lirik ko'lam yoki hayot mashaqqatini, fojiasi insoniy taqdirlar talqinida umumiylik, hamohanglik kuzatildi. Sh.Xolmirzaevning "Hayot abadiy" hikoyasi tush psixologik uslubidagi teran asar: "Shamol qattiq esib, bujmaygan tok barglarini uning ustiga opkelib sochdi. Tongga yaqin shivalab yomg'ir yog'a boshladi. Bu ilk kuz yomg'iri edi. Qovjiroq ko'katlaru daraxtlarning turfa hidi atrofga anqib ketdi. So'ng yomg'ir tinib, havo, ochildi, unda oppoq yulduzlar yarqirab yona boshladi. Atrof shu qadar sokin ediki, hatto, yaproqlardan tomgan tomchilarning chakkillashi ham eshitilardi. Shabada esa boshladi. Atrof salqin, birdaniga sovuq tushganday bo'ldi.

Bu ajoyib o'zgarishlarni Nodirgina ko'rmadi, chunki u tirishib, o'lib yotibdi. Oyoq – qo'lini yozib, ko'zlarini yumib, iyagini ko'tarib bog'lab qo'yadigan bironta odam bo'lmaganidan tirishib, kulala bo'lib qoladi - da"

Savxoz bosh agronomining ruhiy qisinish asnosi – uning xotini qizchasini olib ota – onasinikiga achchig'lanib ketgandi, behush yiqilib qoladi – da , tushida o'zining o'lganini ko'radi. Shu tariqa uning ruhiy holatida o'zining motam marosimi, motamga kelgan kishilar manzarasi jonlanadi.Shuningdek, "Proletar"lik – mag'rurlik, to'g'rigo'ylik, poklik ishorasida ishlatilgan psixologik timsol xarakteriga oid so'z. Bu aslida Nodir agronomning pokdomonlik, ko'nglida g'ubori yo'q ochiqko'ngil inson ekanligining muhim belgisi. Uning ruhiy dunyosida o'zining yaxshi odam ekanligini e'tirof etayotgan kishilar munosabati aks etadiki, bu obraz hayol – umididagi psixologik orzu sanaladi. Darvoqe, u

qanday bo'lib o'ldi? O'sha kuni majlisdan tanqid yeb keldi, qaynonasi bilan uy xususida janjallashdi, xotini ketib qoldi, ko'chada itni urib, egasidan dakki eshitdi... Keyin eshikka chiqqanda, ko'kragiga sovuq shamol urildi. Bu kuz shamoli shunchalik yoqimli, huzurbaxsh ediki. Nodirning xo'rligi keldi. Keyin bu adolatsizliklarga chidolmay, o'zini achchiq ustiga o'ldirib qo'ydi."Adabiyotshunos Mirzaaxmad Olimov qayd qilganidek, "Tragik situatsiya o'zida tragik kolliziyani mujassamlashtirgan, qahramonni xatarli azob – uqubatlarga, iztiroblarga va qaysidir ma'nodagi halokatga duchor etadigan vaziyatdir." Bu xarakterli fikr Nazar Eshonqulning aksariyat adabiy qahramonlari, Sh.Xolmirzaevning yuqoridagi "Hayot abadiy" hikoyasi qahramoni Nodir shaxsiyatiga ham tegishlidir. Binobarin inson psixologik dunyosi tragizm bilan bevosita bog'liq. Taniqli adabiyotshunos M.Baxtinning ko'rsatishicha, mashhur ruhiyatshunos adib F.M.Dostoevskiy "roman yozish uchun haqiqatda muallif qalban boshdan kechirgan kuchli taassurotlardan bir yoki bir nechasini g'amlab qo'yish kerak"ligini qayd etgan ekan. Chunki, "ijodkor muallif qalbi boshdan kechirgan kuchli taassurotlar" payti kelib uning tuyg'usiga zarb beradi va ijodkordan his etish, umumlashtirish va badiiy aks ettirishini talab etadi. Xuddi shu jarayonlarda ijodiy individuallik yozuvchi shaxsiga moslikni rad etmagan, unutmagan holda faol harakatga kirishib, faktlar, tafsilotlar, talqinlar, xarakterlar, taqdirlarni ma'lum maqsadga uyushtiradi, ya'ni ijodkor qalbi ular bilan reaksiyaga kirishadi.

"Har bir personajda, - yozgan edi yozuvchi Valentin Kataev – uni yaratgan ijodkor qalbining zarrasi bor. Qaxramonni oddiygina hayolan to'qish yaramaydi, yozuvchi "uning qalbiga kirishi" kerak, unga o'z qalbi va yuragining zarrasini berishi zarur: shundagina yozish oson yozgani ishonchli psixologik jixatdan mazmundor va hayotiy bo'lib chiqadi..." Valentin Kataev bu kabi ijod va ijodkor

psixologiyasi bilan bog'liq qiziqarli va jozibali fikrlarini ikki adabiy ustozi Ivan Bunin va Vladimir Mayakovskiyning shaxsiy va ijodiy olami haqidagi "Hayol chechaklari" nomli adabiy – estetik asarida ancha, batafsil talqin qilingan.

Xulosa chiqadiki, qahramonlar ruhiy olamini chinakam ishonchli va hayotiy tarzda talqin qila olish uchun shu yozuvchining o'zi avvalo yetuk ma'naviyat sohibi, psixologik jihatdan hissiyotchan sezgir, nigohi o'tkir bo'lishi kerak.

Nazar Eshonqul adabiy izlanishlarda, alohida ixlos bilan intilgan yozuvchilari orasida F.M.Dostoevskiy adabiy tajribalarining ahamiyati o'ziga xos ekanligi bilan xarakterlanadi. Bu ayniqsa jabrdiyda kishilar obraz – tiynatining butun iztiroblar, ezilishlar rakursida tasvirlanishida ko'zga tashlanadi. Adabiyotshunos olima Saodat Komilova yozadiki, "70 – 90 yillar o'zbek adabiyoti rivojlanishining asosiy tamoyillarini milliy adiblarning ahloqiy – psixologik izlanishlari xarakteri o'zida yaqqol aks ettirgan. Ular badiiy tizimlarning transformatsiyasi va dunyoqarashlarining keskin o'zgarishi ham umuman ijtimoiy – madaniy vaziyat, ham adabiyotda kechgan evalyutsion o'zgarishlarning qonuniy natijasi edi."

Nazar Eshonqul mana shu davr, ayniqsa, istiqlol davri navqiron ijodkorlari safidagi qizg'in izlanishlar bilan adabiyot maydoniga kirib kelgan edi. Nazar Eshonqulning "Maymun yetaklagan odam", "Tobut", "Zulmat saltanatiga sayoxat", "To'zon", "Og'riq lazzati" kabi hikoyalarida, "Qora kitob", "Tun panjaraari" qissalarida, "Go'ro'g'li yoxud tiriklik suvi" romani markazida turgan jabrdiyda , ezilgan kishilar obrazlari "Hayol tuzog'i" hikoyasi qaxramoni Voqif timsolida ham o'zini namoyon etadi. Bu o'ta tushkun kayfiyatli obrazlar bir qadar modernistik obsurd xarakteridagi timsollarni biroz eslatsa – da, bu ezilgan timsollar hayotiy va milliy zaminga ega, totalitar davr boshiga kulfat solgan bandalar tipi sifatida

haqqoniylik kasb etadi yozuvchining haligi adabiy estetik qarashlari "Hayol tuzog'i" hikoyasida o'z tasdig'ini topgan. U ijodkor shaxs fojiasi, savdoyilikka mubtalo bo'lgan inson qismatining o'kinchi va daxshatini, iste'dodli a'zosini himoya etolmagan va aksincha, insonni telbalikka majbur etgan yovuz muhitning yaramasliklarini tasdiqlashga qaratilgan.

Nazar Eshonqul mazkur hikoyasida nutqiy xarakteristika (yoki muallif nutqi) va ichki monolog psixologik usullaridan unumli foydalangan. "Hayol tuzog'i" hikoyasida izlanuvchan psixolog yozuvchining manerasi o'z – o'ziga dunyo azob – uqubatini sotib olgandek katta g'amiga botgan og'ir qismatli yigitning shakl – shamolyilini yaratishda muallif nutqi, ichki monolog, hatto gallyusinatsiya kabi psixologik usul turlaridan mahorat bilan foydalana olgan.

"Bu dunyoda noma'lum narsalar shunchalar ko'pki, bu noma'lumlik har qanday odamni yutib yuborishi hech gap emas. Eng yomoni – o'zingga – o'zing noma'lum bo'lib qolishing. Noma'lumlik har kecha mening ustimga lashkar to'plab keladi, tuzoq tashlab ko'radi. O'ziga o'zi noma'lum odam qiyofasi yo'q odam. Qiyofasi yo'q odam tiriklar binosida yashay olmaydi. Bu eski, badbo'y byuino qanchalar kezmasin, o'ziga qiyofa topolmaydi. Qiyofasi yo'q odam o'lgan odamdir... "

Bu kichik parchada salmoqli falsafiy – ruhiy mushohada usuli majoziy mohiyat bilan sinkretik tarzda namoyon bo'lgan. "Noma'lumlik" , "tiriklar binosi", "qiyofasi yo'q odam" yoki umuman qiyofasizlik so'zlari va bu bir qaraganda abstraktdek bo'lib tuyuladigan so'zlar o'z bag'rida teran majoziy psixologiyasini mujassam etgan. Noma'lumlik majozida asar qaxramonining va umuman mohiyatan noma'lum insonning uzlatga chekingan, o'z g'amini va dardi ummoniga g'arq bo'lgan bechora banda tiynati mujassamdir. Noma'lumlik esa

hayotda, atrof – tevarakda o'zida boshqalar ko'radigan, ko'rib quvonadigan yoki nafratlanadigan aniq bir qiyofa topolmaydi. Buyam, ya'ni, qiyofasizlik qismati ham majoziy mohiyatga ega. Monolog va psixologitk tasvir uyg'unligi konsepsiyasi Nazar Eshonqulning "Hayol tuzog'i" mazmunidagi yana bir qator asarlarida ham mohirona qo'llangandir.Yuksak izlanishlar natijasi o'laroq yozuvchi Nazar Eshonqul eng avvalo, milliy zamin nuqtai nazaridan notakroriy yutuqlarga erisha olgan desak xato bo'lmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Adabiyot inson qalbi uchun kurashdir. "Kitob dunyosi", 2013 yil 27 fevral. №4
2. Xolmirzaev Sh. Hayot abadiy// Xolmirzaev Sh. Bodom qishda gulladi. T., ASN, 1986, 217-bet
3. Xolmirzaev Sh. Bodom qishda gulladi... 219- bet
4. Olimov M. Fojiaviy pafosning ayrim o'ziga xosliklari. "O'zbek tili va adabiyoti" jurnali, 2005 yil, 3-son, 6 – bet.
5. Бахтин М. Проблемы поэтики Достоевского. Москва, «Художественная литература», 1971, стр. 205
6. Eshonqul N. Ijod – ruhining hurligidir. "Yozuvchi", 1998, 21 yanvar
7. Eshmamatovna, E. S. A GLANCE TO THE CREATIVE WORKS OF THE POET TESHA SAYDALIYEV. *Zbiór artykułów naukowych recenzowanych.*, 87.
8. Mukhtarova, M. S., Namozova, S. B., & Mardonova, L. U. (2023). A Lyrical View of History. *Journal of Law and Sustainable Development*, *11*(12), e2676.
9. GABRIEL GARCIANING "ATIRGULNING TIKONI" ASARI. (2025). *Ustozlar Uchun*, *85*(7), 223-225. https://journalss.org/index.php/ust/article/view/10194

10. Saidmuradova, S., & Madina, T. L. (2024). ALISHER NAVOIY SHE'RIYATI POETIKASI. *PEDAGOGS*, *57*(1), 147-152.
11. O'RTA OSIYODA NOTIQLIK SAN'ATI. (2025). *Ustozlar Uchun*, *85*(7), 39-41. https://journalss.org/index.php/ust/article/view/10091
12. Xurramovna, Q. G., & To'raqulovna, D. M. (2025, December). "FARHOD VA SHIRIN" DOSTONIDAGI ONOMOSTIK BIRLIKLARNING BADIIY-POETIK AHAMIYATI. In *INTERNATIONAL CONFERENCE ON SUPPORT OF MODERN SCIENCE AND INNOVATION.* (Vol. 1, No. 5, pp. 58-61).
13. Dilshoda, A. (2025). MUHAMMAD YUSUF IJODINING ADABIYOTIMIZDA TUTGAN O 'RNI. Global Science Review, 1(1), 388-392.
14. Sarvinoz, J. (2025). " ALKIMYOGAR" ASARIDAGI RAMZIY OBRAZLAR TAHLILI. *Global Science Review*, *3*(4), 342-344.
15. Zebiniso, T. (2022). SIFAT SOZ TURKUMINING USLUBIY XUSUSIYATLARI. *Scientific Impulse*, *1*(4), 34-37.
16. Mardonova Lobar Umaraliyevna. (2024). TARIXIY MANBALARDA AMIR TEMUR OBRAZINING BADIIY TALQINLARI. IMRAS, 7(6), 56–60.
17. Zafariddin, Temirov, and Xujanova Nasiba. "The Triumph of Light Over Darkness." *American Journal of Research in Humanities and Social Sciences*, vol. 33, 20 Feb. 2025, pp. 34-37.
18. Komilovna M. S. Hydronims Formed by the Method of Syntactic and Transonimization //World Bulletin of Social Sciences. – T. 37. – C. 16-18.